



TURKIY TILLARDA GRAMMATIK SHAKLLAR MUSHTARAKLIGI VA FARQLARI

Ashurova Mahbuba Bahor qizi

*Qarshi davlat universiteti tayanch
doktaranti*

Annatsiya: ushbu maqolada turkiy tillar hisoblangan o'zbek va turk tillaridagi lug'aviy shakl hisoblangan sifatdoshlarga to'xtanildi. Ularning o'xshash va farqli tomonlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: turkiy til, lug'aviy, singarmonizm, sifatdosh.

Annotation: this article focused on adjectives considered as lexical forms in Uzbek and Turkish languages, which are Turkish languages. Their similarities and differences were studied.

Key words: Turkish language, dictionary, synharmony, adjective.

Ma'lumki, jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida sodir bo'lgan voqea-hodisalar tilda aks etmay qolmaydi. "V.Gumboldtning tilshunoslik oldidagi yana bir xizmati shundaki, u jahon tilshunosligida birinchilardan bo'lib tilning sistemaviy tabiatga ega ekanligini asoslab berdi. U "Tillarni turli rivojlanish davriga ko'ra qiyoslab o'rganish" asarida har qanday tilni ichki aloqalari va munosabatlarini e'tiborga olgan holda o'rganish tilshunoslik oldida turgan eng muhim vazifa ekanini bayon qiladi. V.Gumboldt fikricha, tilda hech qanday alohidalik yo'q, uning har bir alohida elementi butunning bir qismini namoyon qiladi. U tilni har bir tolasi boshqasi bilan zanjir bo'lib choklangan ulkan to'qimaga o'xshatadi. Tildan foydalanayotgan har bir individ bu ulkan to'qimaning faqat bir qismi bilan ish ko'rsa ham, lekin bu qism boshqalari bilan 9 muqarrar aloqa hamda ichki munosabatlar garmoniyasidan iborat bo'lgani uchun butun bir to'qima o'laroq namoyon bo'ladi. V.Gumboldt tilning sistemaviy tabiatga egaligini e'tirof etish bilan birga, uning belgilar sistemasi ekanini ham bayon qiladi" [A.Nurmonov, 2012: 28].

Turkiy tillarining fonetik, morfologik, sintaktik tizimidagi ayrim grammatik hodisalar barcha tilda ham mavjud. Lekin bu hodisalar ifodalanishi, ma'nosi va boshqa xususiyatlari bilan o'ziga xos jihatlarga ega.

Turkiy tillar oilasi o'ttizga yaqin tilni o'z ichiga oluvchi katta oilalardan biri hisoblanadi. Turkiy tillar agglyutinativ tabiatga ega oilalar tukumi tarkibiga kiradi. Agglyutinativ tabiatga ko'ra esa avvalo so'z asosi keyin grammatik shakllar qo'shiladi. Turkiy tillar, ulardagi grammatik shakllar zamonlar oshsada haligacha o'zining o'xshash sifatlarini saqlab kelmoqda. Jumladan o'zbek va turk tillari misolida ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunga kelib ularning bir-biriga o'xshash va farqli holatga kelgan shakllarni uchratishimiz mumkin. Masalan bizda lug'aviy shakl yasovchilar tarkibiga kiritilgan fe'lning sifatdosh shakllari misolida

ko'ramiz:"Sifatdosh — fe'ning funksional shakllaridan biri. Sifatlar kabi predmetning belgisini ko'rsatishga xoslangan va xuddi shu xususiyatiga ko'ra Sifatdosh deb yuritiladi. Sifatdosh shakli hozirgi o'zbek tilida, asosan, gan, vchi affikslari yordamida yasaladi: o'qigan kitoblarim, kurashga tushuvchi yigitlar. gan affiksi fe'ning zamon kursatkichiga ega bo'lmagan shakliga qo'shilganda, o'tgan zamon ma'nosini; fe'ning xoz. zamon ko'rsatkichi bo'lgan shakliga qo'shilganda, hozirgi zamon ma'nosini; fe'ning hozirgikelasi zamon ko'rsatkichi bo'lgan shakliga qo'shilganda, hozirgi kelasi zamon ma'nosini bildiradi: kelgan odam, kelayotgan odam, keladigan odam. Sifatdoshning zamoni bevosita nutq vaqtiga nisbatan emas, balki fe'ning aniqlik maylidagi shaxsson bilan tushlangan shakli bildirgan vaqtda, gapning kesimidan anglashilgan vaqtga yoki matndagi biror so'z bildirgan vaqtga nisbatan belgilanadi. Shu sababli sifatdosh bildirgan zamon nisbiy zamon hisoblanadi. Ko'chada kelayotgan yigit atrofga bir qarab qo'ydi. Mening sizga aytadigan anchagina gaplarim bor. Bunday ko'rsatkichli Sifatdosh shakllari fe'ning o'tgan zamon shakllarini hosil qilishda ham qatnashadi: kelgan edi, ketayotgan edi kabi. Sifatdoshning -vchi affiksi bilan yasaluvchi turi predmetga doimiy xos bo'lgan odatdagi harakat belgisini, ba'zan esa kelgusiga oid harakat belgisini bildiradi: Kishini sehvlovchi ohanglar. Bu yerga keluvchi mehmonlarni kutib olamiz. Sifatdosh gapda anikdovchi vazifasida keladi. Sifatdoshlar otlashganda (qarang Otlashuv), otlarga xos sintaktik vazifalarni bajaradi".[Azim Hojiyev,1975-76]

Türkçeda

- dık -duk: tanıdık,okuduğum
- miş -muş: pişmiş, morarmış ,dökülmüş
- an: gelen,yanan ,kuruyan , seven
- r, -ar, -ır, -ur: güler, bılır, benzer, çalar
- maz: dınmez, anlaşılmaz, görünmez
- acak: yaşanacak, söylenecek
- ası: öpülesi, kırılısı , yıkılısı¹ [Ahmet B. Ercilasun 2007:65]

O'zbekchada

Manbalarda sifatdoshning quyidagi shakllari ajratiladi:

- [-gan]: o'qigan bola
- [-(a)r]; uchar kema
- [-(u)vchi]: tez oquvchi daryo
- [-mish]: o'qiganmish

¹ [Türk lehçeleri grammeri DR Ahmet B Ercilasun 2007:65]

[-ajak]: kelajak avlod

[-asi,gusi]: kelasi yil , kelgusi hafta.

[-ydigan, adigan]: o'qiydigan bola,

[-yotgan, ayotgan] uchayotgan samoliyot

Ko'rib turganingizdek, bu ikki til bir-biri bilan deyarli o'xshashdek u ammo eng katta farq ulardagi singarmonizmning mavjudligida hisoblanadi. Yana o'rtadagi farqlarning biri unilarning qalin va yumshoqlik belgilari yani jarangli (qalin) Aa, Ii, Oo, Uu.

2-Jarangsiz (yumshoq) unililar: Ee, Ii, Öö, Üü.

Turkiy eng birinchi asarlardan hisoblangan "Qutadg'u bilig" asarida unilarning qalin , yumshoqliklari haqida to'xtalib o'tiladi. Rivojlanishning keyingi davrlarida esa tillar uncha katta farqlanmaydi. XIX asrdan keyin turkiy tillardagi farq yaqqol yuzaga keladi. Bugungi kunga kelib esa o'zbek tilimiz turkiy tillarga xos bo'lgan singarmonizm hodisasini tamomila yo'qotgan turk tilida esa bu hodisa haligacha saqlanib kelmoqda. Masalan: Doktor, annesine: "Her gün yemek yemeden önce ilâçlarını içirin, üstünü sıkıca örtüp yatırın." dedi. Eczaneden ilaçlan aldılar ve eve döndüler. Bu yerda ko'rganimizdek unilarning moslashuvchanligi kuzatishimiz mumkin. Asosda yumshoq unli bo'lsa unga qo'shilayotgan grammatik shakllar tarkibidagi unililar ham unga moslangan holda yumshoq qo'shiladi (üstünü). Bizning o'zbek tilimizda bu hodisa kuzatilmaydi. Yana shuni aytib o'tish joizki, turk tilidagi grammatik shakllar mana shu hodisalar sababdan bir shaklning to'rttagacha variantdoshlarini uchratishimiz mumkin (-r, -ar, -ır, -ur). Qiyosiylik shunday hodisaki , bunda bir tilda bor unsur birida yo'q yoki bor bo'lsa aynan emas. Turk tilida bo'lishsizlik shakli -maz deb beriladi , o'zbek tilida esa -mas shaklida kiritilgan ilmiy adabiyotlarimizda.

Türkçeda

-maz

görünmez

dınmez

anlaşılmaz

O'zbekchada

-ma , -mas (ar)

O'qimagan

İshlamayotgan

Oqmas

bilmas



Xulosa qilib aytganda, bu ikki tillarning grammatik shakllaridagi mana shunday ko'rinib turgan sistemalar qolgan shakllarda ham uchraydi. Lekin ularning gapdagi grammatik joylashuvi bir xil, bajarayotgan vazifalari ham bir xillikni namoyon qiladi. Ulardagi farq esa mavjud morfologik shakllarning asoslarda birikuvchanligidagi xususiyatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmonov A. Tanlangan asarlar.- T.: Akademi-nashr, 2012.-B.28
2. DR Ahmet B Ercilasun. Türk lehçeleri grammeri.:Anqara,2007.-B.65
3. Ergin M. Türk Dili Bilgisi. Istanbul: Vaurak basimevi. 1993.
4. Xudoyberganova Z. O'zbek va Turk tillarida monotaksemalarning ilmiy talqini. Toshkent: O'Zr FA Til Va Adabiyot Instituti. 2007.
5. Hojiyev A.O'zbek tili grammatikasi.-T.:1-2 jild .1975-76
6. Internet saytlari. <https://www.pdfdrive.com>. <http://www.bioline.org.br>.